

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 3 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 3 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодий университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодий университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот

технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодири Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Axmedov Jasurbek, Jabborova Gavharshod

QANQA ARXEOLOGIK YODGORLIGINI MUZEYLASHTIRISH MASALASI 9-14

Шухрат Эргашев

ФРАНЦИЯДА ИККИНЧИ РЕСПУБЛИКА ИНҚИРОЗИ ВА 1851 ЙИЛГИ ДАВЛАТ

ТЎНТАРИШИ 15-23

Касимова Шахноза Алишеровна

ПРИЕМЫ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ В МУЗЕЙНОЙ ЭКСКУРСИИ 24-29

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна

АГРОКЛАСТЕРЛАР ВА МАҲСУЛОТ ЕТИШТИРУВЧИЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИКНИНГ

ИҚТИСОДИЁТДА ТУТГАН ЎРНИ 30-35

Мусагалиев Ажунияз Жумагулович, Дустова Мухайё Худайбердиевна

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ БОРАСИДАГИ АЙРИМ

МАСАЛАЛАР 36-41

Murodova Nargiza Utkirovna

TURIZM MARKETING FAOLIYATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING AHAMIYATI 42-47

Kuchkarov Baxrom Kuziyevich, O'rmonov Xasanboy Haydarovich

КОМПАНИЯЛАРНИНГ МОЛИЯВИЙ ТО'ЛОВГА ЛАЙОҚАТСИЗЛИГИ ХАВФИНИ АНИҚЛАШ 48-55

Temirova Feruza Sagdullayevna

MARKETINGNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI -

BRENDING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH 56-62

Sobirova Marhabo Haitovna

МЕВА-SABZAVOT KOOPERATSIYASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH

YO'LLARI 63-67

Mamajonova Gulasal Oribjon qizi

KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNING

SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI 68-77

Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich

О'ЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЙОТИНИНГ РИВОЈЛАНИШИДА ИНВЕСТИЦИЯ РИСКЛАРИНИ

БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ 78-87

Тўхтамишов Азиз Қаҳрамонович

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ АСОСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ
МОҲИЯТИ, МАЗМУНИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ 88-101

Каржавова Хуршида Абдумаликовна

МАҲАЛЛА ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ИЖТИМОЙ ХИЗМАТЛАР КўРСАТИШНИНГ
АСОСИЙ ЙўНАЛИШЛАРИ 102-110

Soliyev Dilmurod Jamolovich

AYLANMA MABLAG'LARNI SAMARALI BOSHQARISH KORXONA FAROVONLIGINING
ASOSIDIR 111-119

Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH
MASALALARI 120-130

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Тўраев Шавкат Нишонович

ЖАМИЯТ МАФКУРАСИ ИЖТИМОЙ САФАРБАР ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ОМИЛИ 131-137

Qodirov Davronbek Hoshimovich

TASAVVUF TA'LIMOTINING NAZARIYOTCHISI – ABULQOSIM QUSHAYRIY 138-143

Sharipov Dilshod Baxshilloevich

TINCHLIKNING UNIVERSAL (DUNYOVIY) TARTIB BO'YICHA TAHLILI 144-148

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Гаппаров Алибек Қаршибоевич

ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ЛЕКСИКАНИНГ СОЦИОЛИНГВИСТИК АСПЕКТИ 149-155

Fayzieva Zuxra, Sharipova Yoqut Quدراتillayevna

APPLICATION OF GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGE TO THE BLIND
AND VISUALLY IMPAIRED 156-161

Ахмедшина Лилия Рафаэльевна

РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «МУЖ « И «ЖЕНА»
В ПОСЛОВИЦАХ И ПОГОВОРКАХ 162-166

Kholmuminova Makhliyo

DIFFERENCE BETWEEN MEANINGS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES 167-171

Shirinova Yekaterina

NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI 172-178

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Қутлымуратов Фархад Қалбаевич

ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШДА СОЛИДАР
ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ 179-185

Kasimov Nodirjon Sodikjonovich

QASDDAN O'DIRISH JINOYATINING TUSHUNCHASI, TAVSIFI VA JINOIY HUQUQIY
XUSUSIYATLARI 186-196

Урманбаева Ферузахон Саттаровна

ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИКНИНГ ЗАРУРИЯТИ ВА МОҲИЯТИ 197-203

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Tursunaliyev Ilhomjon Axmedovich

“HAYOT DAVOMIDA TA'LIM” – JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINI UZLUKSIZ
KASBIY RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMI SIFATIDA (NAZARIY JIHATLAR
TAHLILI) 204-210

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich

BO'LAJAK REJISSORLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA
TRENING MASHQLARINING AMALIY AHAMIYATI 211-217

Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA QAT'IYATLILIK SIFATINI JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA
TARBIYALASH 218-223

Бабаходжаева Наргиза Мухитдиновна

ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ПЕДАГОГ КАДРЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ
ПСИХОЛОГИК-ПЕДАГОГИК ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ 224-229

Mengliqulov Xayrulla Aliqulovich

HARAKATLI O'YINLAR ORQALI 14-15 YOSHLI SUZUVCHLARNING JISMONIY SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH 230-236

Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi

ADVANCED PEDAGOGICAL EXPERIENCES IN ORGANIZING AND DEVELOPING THE
EDUCATIONAL PROCESS ON THE BASE OF DIGITAL TECHNOLOGIES 237-244

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

YADRO FIZIKASI BO'LIMLARINI O'QITISHDA INNOVATSION KOMPYUTER
TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TALABALAR FAOLLIGINI OSHIRISH 245-254

Ergashev Omonboy Turgunbayevich

TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY ZARURATI VA
PEDAGOGIK ASOSLARI 255-260

<i>Ruzmetova Novval Vahabdjano</i> THE ROLE OF FOLK TRADITIONS IN FORMING LEGAL CULTURE OF STUDENTS OF LAW SCHOOLS	261-269
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARIDA MILLIY SPORT TURLARI ASOSIDA AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	270-274
<i>Makhmudov Furqat Djumaboyevich</i> YORUG'LIK KVANT NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI. YORUG'LIK KVANTI MAVZUSINI O'QITISH USULLARI	275-281
<i>Бабахова Гулзиба Зиятбаевна</i> К ВОПРОСУ МЕТОДИКИ ИЗУЧЕНИЯ ТЕОРИИ АТОМОВ ВОДОРОДА ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ КУРСА КВАНТОВАЯ МЕХАНИКА	282-289
<i>Dexkanov Sherzod Abdumutalibovich</i> KAFEDRALARARO BITIRUV MALAKAVIY ISHLARINI TAYYORLASH – SIFATLI TA'LIMNI TA'MINLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA	290-296
<i>Ҳакимова Муқаддас Ҳасановна</i> КОМПЕТЕНТЛИ ЁНДАШУВ АСОСИДА БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ИЖОДКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	297-301

10.00.00-Филология фанлари

Shirinova Yekaterina Turakulovna

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

NUTQIY TAFAKKURNING PSIXOLINGVISTIK MUAMMOLARI

Аннотация. Mazkur maqolada so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lgan psixolingvistika fani doirasidagi ayrim masalalar, xususan nutqiy tafakkurning psixolingvistik muammolari, til va tafakkur munosabatlari ko‘rib chiqiladi. Dunyoning yetakchi olimlari tadqiqotlari natijasi o‘laroq ichki nutq, intertil tushunchalari, bosh miyaning dual faoliyati tog‘risida shakllangan ma‘lumotlar beriladi. Matn psixolingvistik tahlilning muhim shakli ekanligi haqida fikr yuritiladi, psixolingvistik tadqiqot metodlari, xususan assotsiativ eksperiment haqida mulohazalar beriladi.

Калит so‘zlar: psixolingvistika, til, tafakkur, ichki nutq, tashqi nutq, bosh miya, Brok markazi, Vernike markazi, matn, assotsiativ eksperiment.

Ширинова Екатерина Туракуловна

Преподаватель ТашГУУЯЛ имени Алишера Навои,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РЕЧЕВОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются некоторые вопросы в области психолингвистики, в частности, психолингвистические проблемы речевого мышления, отношения языка и мышления, которые в последние годы находятся в центре внимания многих исследователей. В результате исследований ведущих ученых мира будут предоставлены сведения о внутренней речи, межъязыковых понятиях, двойственной деятельности головного мозга. Считается, что текст является важной формой психолингвистического анализа, даются комментарии о психолингвистических методах исследования, особенно ассоциативном эксперименте.

Ключевые слова: психолингвистика, язык, мышление, внутренняя речь, внешняя речь, мозг, центр Брока, центр Вернике, текст, ассоциативный эксперимент.


Shirinova Ekaterina Turakulovna

Teacher of TSUULL named after Alisher Navo‘i,
PhD in Philology

PSYCHOLINGUISTIC PROBLEMS OF SPEECH THINKING

Abstract. This article discusses some issues in the field of psycholinguistics, in particular, the psycholinguistic problems of speech thinking, the relationship between language and thinking, which have been the focus of attention of many researchers in recent years. As a result of research by the world's leading scientists, information will be provided on inner speech, interlingual concepts, and the dual activity of the brain. The text is considered to be an important form of psycholinguistic analysis, comments are given on psycholinguistic research methods, especially the associative experiment.

Key words: psycholinguistics, language, thinking, inner speech, outer speech, brain, Broca's center, Wernicke's center, text, associative experiment.


 <https://doi.org/10.47390/1342V3I3Y2023N23>

Kirish. Bugungi kunda dunyo tilshunosligida antroposentrizm ilmiy tadqiqotlarning eng nufuzli tamoyillari orasida yetakchilik qilib kelmoqda. Y.N.Karaulov qayd qilganidek, antroposentrizm insonni bir butun, yaxlit holda o'rganishga da'vat etadi. Inson o'z tili bilan munosabatga kirishgan holda "til shaxsi" maqomiga ega bo'ladi [2; C.261].

Til shaxsi, eng avvalo, antroposentrik paradigma doirasida shakllanib borayotgan fanlar, xususan psixolingvistikada tadqiq va tahlil qilinadi. Ma'lumki, insonning dunyoni anglashi tafakkur va til orqali amalga oshadi, ular vositasida namoyon bo'ladi.

Nutqiy tafakkurning psixolingvistik muammolari, tafakkur va til munosabatlari, ichki nutq, intertil tushunchalari, bosh miyaning dual faoliyati masalalari V.P. Belyanin, V.P.Gluxov, I.N.Gorelov, A.A.Zalevskaya, A.A.Leontyev, Sh.Usmonova singari psixolingvist olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Materiallar va metodologiya. Til va tafakkur munosabatlari nihoyatda murakkab bo'lib, ushbu hodisalarning qaysi biri boshqasiga nisbatan birlamchiligi to'g'risida qat'iy fikr mavjud emas. Tilshunos olim L.S.Vigotskiyning taxminiga ko'ra, tafakkur va tilning rivojlanish chiziqlari ko'p marta birlashadi va ajraladi, kesishadi, ayrim davrlarda tenglashadi va parallel kechadi, hatto ayrim jihatlari bilan uyg'unlashadi, keyin yana tarmoqlanadi.



Mavhumlik xususiyatiga ega bo'lgani bois tafakkur faqat til asosida amalga oshadi, degan fikr ko'pchilik tomonidan tan olinadi. Nutqiy imkoniyatlari cheklangan insonlarning harakatlarini kuzatish asosida aytish mumkinki, muayyan bir sun'iy muloqot vositasini o'zlashtirguniga qadar ham ular o'zlarini ongli va munosib tutadilar. Total afaziya sindromi bilan kasallangan bemorlar ham bevosita tabiiy tilni qo'llash bilan bog'liq bo'lmagan aqliy topshiriqlarni, ya'ni lichik parchalardan yaxlit tasvirni hosil qilish, labirintdan chiqib ketish yo'lini topish, shaxmat va shashka o'yinlarini o'ynash kabilarni qiyinchiliklarsiz uddalashlari mumkin.



Fikrlay olish va soʻzlay olish qobiliyati ayni bir hodisalar emas. Biri boʻlmagan taqisirda ham ikkinchisi boʻla oladi, ayniqsa tafakkur dahlsiz hodisadir. Bu serqirra jarayon boʻlib, koʻp pogʻonali va turli-tuman variantlarda namoyon boʻladi. Zero, koʻplab soha mutaxassislari: shifokorlar, psixologlar, fiziologlar, mantiqshunoslar va tilshunoslarning ilmiy-amaliy kuzatuvlari natijasiga koʻra, tafakkur faqatgina mavhum-mantiqiy qobiqda emas, balki hissiy bilish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega boʻlib, u koʻrgazmali obrazlar va tasavvurlarga tayana oladi. Masalan, oʻz tafakkur mahsulini bastakorlar kuy, musiqa shaklida, matematiklar formulalar koʻrinishida ifodalashlari mumkin.

Tafakkur va til munosabatlari qisman kesishuvchi doira sifatida tasvirlash mumkin: tafakkur butunlay tilning ichiga kirib ketmaydi, oʻz navbatida tildagi hamma narsani ham tafakkur diorasiga kiritib boʻlmaydi.



Tafakkur mantigʻi til birliklarida namoyon boʻladi. Koʻplab olimlarning fikricha, asosiy fikrlash mohiyatlari tillarning grammatikasida aks etadi va aynan grammatik kategoriyalash leksik jihatdan ifodalangan konseptual mazmunning asosiy tarmogʻidir. Masalan, ega kategoriyasi orqali sub'ekt mantiqiy kategoriyasi, kesim orqali esa predikat konseptuallashadi.

Olimlar mavhum (verbal-mantiqiy) tafakkurning asosiy shakllari sifatida *tushuncha*, *mulohaza* va *xulosa* kabilarni ajratadilar.

Tushuncha – predmet haqidagi umumlashgan bilim boʻlib, uning ob'ektiv aloqa va munosabatlarini ochib berishga asoslanadi. Sxematik shaklda tushuncha tildagi soʻzga (belgiga), ayrim hollarda birikmaga mos keladi. Bola ongida tushunchalar uzoq davom etuvchi ontogenetik jarayon natijasida shakllanadi.

Mulohaza – hodisalarning u yoki bu sifatlarini tasdiqlash yoki inkor etish. Mulohazaga tilda shaklan gap, toʻgʻrirogʻi darak gap toʻgʻri keladi. Mulohaza oʻz strukturasi ega: (S – P – O), bu yerda sub'ekt va predikat ishtiroki zaruriy. Sub'ekt – fikr predmeti boʻlib, gapda odatda unga ega muvofiq keladi. Predikat bu – predmet haqida tasdiqlanuvchi yoki inkor etiluvchi narsa, yaʼni kesimdir.

Xulosa fikrlash jarayoni boʻlib, dastlabki mulohazalar mazmuni asosida yangi mulohazalarning olinishidir.

Til va tafakkur aloqasi bevosita ichki nutqda kuzatiladi. **Intertil** – inson aqliy faoliyatining muhim universal mexanizmi boʻlib, fikr va ifodalanuvchi nutq (nutq yaratilishida) orasida hamda ifodalangan nutq va uning mental obrazi (nutqni qabul qilishda) orasida oraliq bosqich sifatida namoyon boʻladi, yashirin mavjud boʻlgan fikrni sintaktik boʻlaklangan nutqqa va aksincha oʻtishini taʼminlaydi. L.S.Vigotskiy, A.A. Leontyevlar ichki nutqning ikki fazasini ajratadilar: boʻlaklanmagan (ichki nutq yoki ichki dastrulash) va boʻlaklangan (ichki soʻzlash).

Ichki dasturlash – ichki nutqning boʻlaklanmagan (tarmoqlanmagan), fikrning mental tilda paydo boʻlishini taʼminlaydigan fazasi: fikr kutilayotgan nutqiy butunlikni struktur jihatdan dastrulash imkonini beruvchi yaxlit formatda quriladi.

Bu fazada fikrdagi axborot ma'lum darajada til bilan "bog'langan bo'ladi" (masalan, verbal mental kod – konseptlar va propozitsiyalarda ifodalanadi), ammo axborotning bir qismi boshqa turdagi mental reprezentatsiyalarda namoyon bo'ladi: vizual, ovozli obrazlar, chizmalar, reallikning harakatli izlarida aks etadi.

Ichki so'zlash – ichki nutqning bo'laklangan fazasi, fonatsiyadan mahrum qilingan artikulyasion faollik, real so'zlash jarayonida sodir bo'ladigan jarayonlarga artikulyasiya organlarining yashirin fiziologik faolligi bilan kechadigan oz yoki ko'p darajada taqlid.

Ichki so'zlash quyidagi vaziyatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: o'zga tilni o'rganishda, nutqni qabul qilishda (xususan, o'zga tildagi), yuqori murakkablikdagi aqliy masalalarini yechish jarayonida, kattalarda yashirin egonutq ko'rinishida ("gapirib olish" ehtiyojini qondirish, emotsional holatni yuzaga chiqarishning o'ziga xos akti), yozish jarayonida og'zaki monologik nutqning shakllantirilishi va hokazo.

Ichki so'zlash va bolaning egotsentrik nutqi o'rtasidagi o'xshashlik tabiiy bo'lib, bu uning bola egotsentrik nutqidan kelib chiqishi bilan izohlanadi. Ichki so'zlash predikativlik bilan xarakterlanadi. Ichki nutq fragmentli, ixcham.

Ichki dasturlash barcha nutqiy tafakkur jarayonlarining markaziy bo'g'ini bo'lib, barcha turdagi nutqiy faoliyat: so'zlash, tinglash, o'qish va yozishda amal qiladi.

Ichki so'zlash nutq jarayonida kuzatilishi mumkin, ammo majburiy faza emas. Demak ayrim hollarda ushbu faza tushib qolishi ham mumkin.

Miyaning funksional assimertiyasi XIX asrning birinchi yarmida aniqlangan bo'lib, 1836-yilda qishloq vrachi M.Daks bosh miya chap yarimsharining jarohatlanishi va nutqning yo'qolishi o'rtasida aloqadorlikni sezib qoldi. Keyinchalik A.L.Uaygon (Wigon) psixologik va psixiatrik ma'lumotlar asosida «The Duality of Mind» (1944) kitobida yarimsharlar orasidagi assimetriyani nazariy anglash uchun birinchi urinishlarni amalga oshirdi. 1968-yilda Dj. Djekson (Jackson) bosh miyaning yetakchi yarimshari haqidagi g'oyani asoslab berdi va bu g'oya XX asrning oxirigacha ustunlik qilgan **yarimsharlar dominantligi konsepsiyasining** asosini tashkil etdi.

Yarimsharlar dominantligi konsepsiyasi – miyaning funksional assimetriyasi nazariyasi bo'lib, unga ko'ra psixik funksiyalar chap yarimsharda lokallashadi, ayni vaqtda o'ng yarimshar ikkilamchi hisoblanadi. O'ng yarimshar vazifasining yetarlicha baholanmagani ushbu nazariyaning kamchiligi edi.



Chap yarimsharda mashhur nutq markazlari joylashgan.

Brok markazi – so'zlarning talaffuzi, artikulyasiyasiga mas'ul bo'lgan mushaklar akti, bosh miya po'stlog'ining alohida qismi.

Vernike markazi – bosh miya po'stlog'ining nutqni tushunishni ta'minlaydigan alohida qismi.


Olimlar jumla va gaplarning qurilishini boshqaradigan assotsiativ markazning mavjudligini ham qayd qiladilar. U jarohatlanganda jumalarni to'g'ri shakllantirish qobiliyati buziladi.

Chap yarimshar – refleksiya va kognitiv bilish organi.

O'ng yarimshar – intuitiv, emotsional-obrazli, hissiy. Uzoq vaqt davomida o'ng yarimshar “soqov” deb, ya'ni nutq, til va nutq jarayonlariga aloqador emas, deb hisoblab kelingan, ammo aynan u nutq ohangining farqlanishini, so'zlarni ishlatish o'ziga xosligi - ijodkorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ranglarni qabul qilishda ham yarimsharlar funksiyalarida tafovutlar bor.


Miyaning assimetriyasi jins bilan ham chambarchas bog'liq, deyiladi. Hozirgi vaqtda mualliflarning ko'pchiligi erkaklarda yarimsharlar assimetriyasi yaqqolroq aks etadi, degan fikrni qo'llab-quvvatlashadi.




Psixolingvistik tadqiqotlarda nutqiy tafakkurning asosiy jihatlari matnlarni psixolingvistik nuqtayi nazardan tadqiq qilishda namoyon bo'lishi qayd qilinadi. Sh.Usmonova tomonidan qayd qilib o'tilganidek, hozirgi kunda ko'pchilik tilshunoslar ayrim til faktlarini to'liq o'rganish uchun lingvistik ramkadan chiqib, inson miyasida tashkil bo'ladigan til materialini zarur lahzada olish uchun individning psixik jarayonlari sferasiga kirish kerakligini tan olishadi. Matnni **lingvistik nuqtayi nazardan** o'rganishda tadqiqotchini birinchi navbatda matnning umumiy mohiyati va emotsional mazmunini ochib beradigan **til vositalari** qiziqtiradi.


Matnni **psixolingvistik nuqtayi nazardan** tahlil qilishda esa matnni yaratadigan va uni qabul qiladigan individning til va tafakkur faoliyati, ya'ni “til sistemasi elementlari yordamida haqiqatni ongda aks ettira oladigan til shaxsi” diqqat-e'tiborda bo'ladi. Agar tilshunoslik matnga “ma'lum til faktlarini kuzatishga xizmat qiladigan material, real aytilgan (yozilgan) jumlar yoki jumlar yig'indisi” sifatida qarasa, psixolingvistika matnga “kommunikatsiya aktining shakli, kommunikatsiya predmetining zaruriy tarkibiy qismi, muallif, retsiyent” sifatida qaraydi. Bunda barcha matn aniq kommunikativ holat ramkasida o'rganiladi., matnlarning shakli va mazmuni kommunikatsiyaning ishtirokchilari – individlarning psixologik xususiyatlari orqali aniqlanadi [3; 64-b].

Matnlarni turli nuqtayi nazardan yondashib, bir necha xil tarzda ta'riflash va tasniflash mumkin. Chunoschi matnlar quyidagi kabi jihatlarga ega bo'ladi:






Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning matn tuzuvchi – matn – retsipiyentdan iborat uchlik nuqtayi nazaridan o'rganilishi unda xususan shaxs omilining rolini chuqur o'rganishni taqazo etadi [3; 64-b].



Matnni psixolingvistik tahlil qilishga doir zamonaviy dasturlar ishlab chiqilgan. V.P.Belyaninning matnga nisbatan lingvistik va psixologik yondashuv konsepsiyasiga ko'ra,

1. Nutq yaratilish jarayoni ortida nafaqat til tizimi, balki psixologiya ham turadi.
2. Har xil matn ortida har xil psixologiya turadi.
3. Badiiy matn tuzilishi aksentuallashgan ong tuzilishiga muvofiqdir (ong psixik tuzilishining matn tuzilishiga ta'siri nazarda tutilgan).
4. Emotsional-mazmuniy dominanta badiiy matnning semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari, shuningdek uning uslubiyati namoyon bo'lishida asosiy rol ni bajaradi.
5. Matn voqelik – ong – olam manzarasi – til – matn tuzuvchi – o'quvchi – matn proyeksiyasidan iborat tizim unsuri hisoblanadi (matn yaratilishi va idrokining barcha lisoniy va nolisoniy omillari qayd qilingan).
6. O'quvchining badiiy asar haqidagi o'z talqini bo'lishi mumkin [1; C.8-9].



Ma'lumki, psixologiyatika eksperimental fan hisoblanadi. Nutq faoliyatini eksperiment asosida o'rganish qator afzalliklarga ega. Tayyor matndagi oddiy nutqni an'anaviy metodlar asosida o'rganayotgan tadqiqotchi passiv kuzatuvchi rolini bajarsa, eksperiment asosida o'rganishda u faoliyatning faol qatnashuvchisiga aylanadi, eksperiment jarayoniga va xarakteriga ta'sir qila oladi. Tadqiqotchi holatni modellashtirish jarayonida tayyor matnni tahlil qilishga nisbatan nisbatan nozik nutq mexanizmlarini ko'proq o'gana oladi; oddiy kuzatish metodiga nisbatan qisqa vaqt ichida ko'proq materialga ega bo'la oladi [3; 68-b].

Natijalar. Eksperiment natijalarini tekshirish uchun turli eksperimental metodikalardan foydalanish, so'ngra olingan ma'lumotlarni qiyoslash tavsiya etiladi. Eksperiment natijalari bilan eksperimentsiz xulosalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlash ham foydalidir. Eksperiment metodi yordamida psixolingvistika fani doirasidagi ayrim masalalar, xususan nutqiy tafakkurning psixolingvistik muammolari, til va tafakkur munosabatlari, ichki nutq, ichki dasturlash, ichki so'zlash tushunchalarining mohiyati o'rganilishi mumkin.

Muhokama. Psixolingvistikadagi eng faol eksperimental metodlardan biri assotsiativ eksperimentdir. Mazkur metod so'zlar va so'z guruhlari o'rtasidagi assotsiativ aloqalarni, inson tafakkurida ularni o'zaro bog'lab turuvchi mental hosilalarni tadqiq qilish imkonini beradi. Assotsiativ eksperimentni tashkil etish tartib-qoidalari psixolingvistikaga doir adabiyotlarda ancha keng yoritib berilgan [3; 69-73-b].

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda tilshunoslikning juda ko'plab sohalari antroposentrik nuqtayi nazardan tadqiq qilinmoqda. Jumladan, terminologiya bo'yicha olib borilgan dissertatsiya ishimizning 4-bobi [4] ham antroposentrik paradigma nuqtayi nazardan tadqiq qilingan bo'lib, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda antroposentrik yondashuvga tayanilayotgani ushbu paradigma doirasida taraqqiy etayotgan yo'nalishlar: psixolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika kabilar yangi taraqqiyot bosqichini boshdan kechirayotganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Белянин В.П. Основы психологической диагностики (модели мира в литературе). – М.: Тривола, 2000. –С.8-9.
2. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. М.: Наука, 2004. С.261.
3. Usmonova Sh. Psixolingvistika: ma`ruzalar kursi. – Toshkent, 2014. 97 bet. 64-bet.
4. Ширинова Е.Т. Ўзбек тили банк-молия терминологияси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати// [avtoreferat shirnova ekaterina 15 09 2020 converted.pdf \(tsuull.uz\)](#); (PDF) Ўзбек тили банк-молия терминологияси. Автореф. Ширинова Е. ([researchgate.net](#))



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I3Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 3 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).